



THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF THE IDEOLOGY OF THE INTELLIGENTSIA

Abdukhilil Sodiqov

independent researcher, intern-lecturer

Namangan State Pedagogical Institute

Namangan State Institute of Foreign Languages named after Ishoqxon Ibrat

Namangan, Uzbekistan

E-mail: sodiqovabduhalil1993@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: ideology, evolution, idea, values, society, national revival, ideological functions, dogmatism, youth education, national development.

Received: 31.03.25

Accepted: 02.04.25

Published: 04.04.25

Abstract: This article analyzes the concept of ideology, its historical evolution, and its role in society. The author examines the various stages of ideological development from ancient times to the present, tracing changes in ideological views. The article also analyzes the importance of ideology in social life, its main functions, as well as the positive and negative aspects of ideological evolution. The author emphasizes the role of ideology in the processes of national revival and development, especially its importance in youth education. The article contains valuable information for researchers in the fields of ideology, philosophy, and social sciences.

ZIYOLILAR MAFKURASINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Abduhalil Sodiqov

mustaqil tadqiqotchi, stajyor-o`qituvchi

Namangan davlat pedagogika instituti

Is`hoqxon Ibrat nomidagi Namangan Davlat chet tillari instituti

Namangan, O`zbekiston

E-mail: sodiqovabduhalil1993@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so`zlar: mafkura, evolyutsiya, g`oya, qadriyatlar, jamiyat, milliy tiklanish, mafkuraviy funksiyalar, aqidaparastlik, yoshlar tarbiyasi, milliy yuksalish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mafkura tushunchasi, uning tarixiy evolyutsiyasi va jamiyatdagi o`rni tahlil qilingan. Muallif mafkuraning turli davrlardagi rivojlanish bosqichlarini, qadimgi davrdan boshlab hozirgi zamonaviy davrgacha bo`lgan

mafkuraviy qarashlarning o‘zgarishini ko‘rib chiqadi. Maqolada mafkuraning jamiyat hayotidagi ahamiyati, uning asosiy funksiyalari, shuningdek, mafkura evolyutsiyasidagi ijobjiy va salbiy jihatlar ham tahlil etilgan. Muallif mafkuraning milliy tiklanish va yuksalish jarayonlaridagi o‘rni, ayniqsa, yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini alohida ta‘kidlaydi. Maqola mafkurashunoslik, falsafa va ijtimoiy fanlar sohasida tadqiqot olib borayotganlar uchun qimmatli ma'lumotlarni o‘z ichiga oladi.

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИДЕОЛОГИИ ИНТЕЛЛИГЕНЦИИ

Абдухалил Садиков

независимый исследователь, преподаватель-стажер

Наманганский государственный педагогический институт

Наманганский государственный институт иностранных языков имени Исхак Хана Ибрагимова

Наманган, Узбекистан

E-mail: sodikovabduhalil1993@gmail.com

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: идеология, эволюция, идея, ценности, общество, национальное возрождение, идеологические функции, догматизм, воспитание молодежи, национальное развитие.

Аннотация: В данной статье анализируется понятие идеологии, ее историческая эволюция и роль в обществе. Автор рассматривает различные этапы развития идеологии от древнего периода до современности, прослеживая изменения идеологических взглядов. В статье также анализируется значение идеологии в жизни общества, ее основные функции, а также позитивные и негативные аспекты идеологической эволюции. Автор особо подчеркивает роль идеологии в процессах национального возрождения и развития, в особенности ее значение в воспитании молодежи. Статья содержит ценную информацию для исследователей в области идеологии, философии и социальных наук.

KIRISH. Bugungi ijtimoiy taraqqiyot, informasion inqilob, globallashuv jarayonlari, jahon maydonlarini ta’sir o‘tkazish maqsadida bo‘lib olishga intilish, bu maydonlardagi o‘zaro kurash sharoitida mafkuraviy siyosatni chuqur bilish, mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Bugungi kunda yosh avlodning qalbi va ongida vatanga muhabbat, milliy g‘oyaga sadoqat ruhini singdirish, fuqarolar, eng avvalo, yosh avloddam milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish va yuksaltirishni ziyorilar ishtirokisiz amalga oshirib bo‘lmasligi shak subxasiz albatta. “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning

mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda, – deydi O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, – ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”. Bundan ko‘rinib turibdiki prezidentimiz ta’birlari bilan aytganda yoshlarning axloqi ma’naviyatiga e’tiborni kuchaytirish ziyolilar oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. O‘zbek tilidagi ziyoli so‘zining o‘zagida ziyo, nur ma’nosini yotadi. “Ziyo” so‘zi ilm, ma’rifatni ifodalashda qo‘llanadi, “ziyoli” so‘zi ilmli, ma’rifatli, bilimdon kishi ma’nosini anglatadi. Ziyolilar yuksak axloqlilik va demokratizm timsoli, yaxshi fazilatlarga ega bo‘lgan, turli xurofotlardan xoli insonlar hisoblanadi. Yovuzlik, tajovuzkorlik, shafqatsizlik, ochko‘zlik singari tuban xususiyatlar ziyolilikka ziddir. O‘zida bunday salbiy sifatlar bo‘lgan ziyoli aql-idrokni, ilmni yovuz maqsadlarga xizmat qildirishi mumkin. Ziyolilar atamasini intelligensiya atamasining tarjimasi sifatida O‘zbekistonda XIX asrning oxiri - XX asrning boshida dastlab jadidlar qo‘llashgan O‘zbek tilining izohli lug‘atida ziyoli tushunchasi quydagicha izoxlanadi: “aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchi, ilmli, o‘qimishli, ma’rifatli shaxs ma’nosini bildiradi.” Ko‘plab xorijiy mamlakat adabiyotlarda ziyoli tushunchasini intellektual tushunchasi bilan sinonim tushunchalar sifatida qo‘llab kelishmoqda. Ziyoli va intellekt bir-biriga yaqin tushunchalar bo‘lib, ular inson tafakkuri, aql-idroki va jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq.

Falsafiy adabiyotlarda Intellektual termini odamning bilim olish, anglash, mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va muammolarni hal qilish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Intellektual salohiyat insonning aqliy qobiliyatları va tafakkurining rivojlanganligi darajasini anglatadi. Intellektual inson o‘z bilimlarini, fikrlarini to‘g‘ri va samarali tarzda ifodalash, yangi g‘oyalar yaratish va masalalarni yechish bo‘yicha yuqori darajada bo‘ladi. Ziyoli esa nafaqat yuqori intellektual qobiliyatlarga ega bo‘lgan, balki o‘z bilim va tafakkurini jamiyatga foyda keltirish, madaniyatni rivojlantirish, ijtimoiy mas’uliyatni his qilish yo‘lida ishlatadigan insonni anglatadi. Ziyoli inson shunchaki bilimli emas, balki bu bilimni jamiyatga ta’sir etuvchi tarzda qo‘llashni biladi. U o‘z ta’lim-tarbiyasini, fikrini va ma’naviy salohiyatini jamiyatda yaxshilik qilishga sarflaydi. Shunday qilib, intellektual inson bilim va fikr yuritish qobiliyatiga ega bo‘lsa, ziyoli inson bu qobiliyatlarni jamiyatni rivojlantirish va yaxshilash yo‘lida ishlatadi. Ziyolilik, intellektual salohiyatning ijtimoiy va madaniy jihatlarga ta’sir ko‘rsatuvchi o‘lchovi sifatida qaralishi mumkin.

Intellekt — bu insonning dunyoqarashi va aqliy salohiyatini shakllantiradigan va uning faoliyatini boshqaradigan muhim omil hisoblanib, I.B.Siddiqov intelekt tushunchasini quydagicha izohlab o‘tadi: “Intellekt asosini dunyoviy bilimlar majmuasi tashkil qiladi, ular o‘rtasidagi aloqa dialektik jarayon tarzida amal qiladi: bilimlar, bir tomonidan, bilish faoliyati natijalari bo‘lsa, boshqa tomonidan, inson faoliyatining o‘ziga xos ko‘rinishi sanaladi. Intellekt bilish va har qanday faoliyatning samaradorligini ta’minlovchi, boshqalarga asos bo‘luvchi umumiy qobiliyat ekanligi

u individning sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, hayoldan iborat bilish qobiliyati tizimidir. Ta'kidlash lozimki, intellekt muayyan ijtimoiy muammolarni inson aqli yordamida samarali va aniq hal etish imkoniyatidir. Intellektning ijtimoiy roli ham nihoyatda katta. U muayyan ijtimoiy muammolarni hal qilishda, ja1miyatning turli sohalarida ilg'or g'oyalar va yechimlar yaratishda asosiy vosita hisoblanadi. Intellektual salohiyatning samarali ishlatilishi, o'z navbatida, jamiyatda yangi bilimlar va texnologiyalarni yaratishga, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni hal etishga yordam beradi. Shu tarzda, intellekt inson faoliyatining barcha sohalarida muvaffaqiyat va samaradorlikni ta'minlovchi markaziy elementga aylanishi mumkin.

Ziyolilar mafkurasining metodologik asoslari ko'pincha zamonaviy ijtimoiy va siyosiy muammolarni o'rghanish va ularni hal etish usullarini aniqlashga yo'naltirilgan. Metodologik jihatdan, ziyolilar mafkurasining yondashuvi, avvalo, empirik tadqiqotlarga asoslanadi, ya'ni ilmiy metodlar va tahlil usullari orqali jamiyatdagi masalalarni o'rghanish va hal qilishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonlik olimlar, masalan, Said Akramov "Ziyolilar va ularning ijtimoiy funksiyasi" asarida, "ziyolilarning jamiyatdagi o'rni va ularning metodologik yondashuvlari to'g'risida batafsil fikr bildirganlar. Akramov, ziyolilarning jamiyatdagi faoliyatini jamiyatdagi o'zgarishlarga mos ravishda metodik va ilmiy tarzda ishlab chiqilishini ta'kidlagan". Ularning faoliyatining samarali bo'lishi uchun ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi, ma'rifat va madaniyatning ustuvorligi kerakligi alohida ta'kidlanadi.

Muhokama. Ziyolilar har qanday jamiyatning ilmiy va ma'naviy taraqqiyotida asosiy rol o'ynaydi. Ular o'z bilimi, zukkoligi va teran tafakkuri bilan xalqni to'g'ri yo'lga yetaklaydi. Ilm-fan va ma'rifat insoniyat taraqqiyotining asosi bo'lib, aynan ziyolilar jamiyatning kelajagini belgilashda muhim o'rin tutadi. Shu bois, ularning ilmiy va ma'naviy yetakchiligi jamiyat barqarorligini mustahkamlashda va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda beqiyos ahamiyatga ega. O'zbekiston respublikasining birinchi prezidenti ziyoli shaxs timsolini quydagicha izohlaydi: "Ilm-ziyo aqli bizdan ko'proq biladigan, uzoqroqni ko'radigan, teranroq anglaydigan kishilar." ya'ni ziyolilar faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki jamiyatga xizmat qiladigan, unga yo'l ko'rsatadigan yetuk shaxslardir. Shu bois, sog'lom va taraqqiy etgan jamiyatni shakllantirish uchun ziyolilarning faol ishtirokini ta'minlash muhim vazifadir.

Ziyolilik – insonning faqat bilimli bo'lishi bilan emas, balki ma'naviy yetukligi, yuksak axloqi va jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi bilan belgilanadi. Haqiqiy ziyoli inson ilmni faqat o'zi uchun emas, balki atrofdagilar va jamiyat manfaatlari yo'lida qo'llay oladigan shaxsdir. Shu bois, ziyolilik tushunchasi faqat bilim va tafakkur bilan cheklanmay, ezgu maqsad va amaliy harakatlar bilan ham bog'liqdir. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asari shunday ziyoli terminini shunday yoritadi: "Aqlli deb shunday kishiga aytamizki, unda o'tkir zehn-idrok bo'lishi bilan birga fazilati ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi

ishlarni amalga oshirishga, yomon ishlardan o‘zini saqlashga va tortishga qaratgan bo‘lmog‘i lozim. Shunday odamnigina aqli va to‘g‘ri fikr yurituvchi deb atash mumkin” Forobiyning qarashlari shuni ko‘rsatadiki, haqiqiy ziyoli inson – bu faqat bilimdon emas, balki tafakkuri, axloqi va ijobjiy amallari bilan jamiyatga foyda keltiradigan shaxsdir. Bugungi kunda ham ushbu tamoyillar har bir ziyoli inson uchun dolzarb bo‘lib, ilmni ezgulikka yo‘naltirish asosiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqotchi A. To‘rayev intellekt tushunnchasini quydagicha izohlaydi: “intelekt – bu insonning kundalik hayot tajribasi, turli shaxslarni tushunish, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklardan to‘g‘ri hamda oqilona saboq chiqarishdir, - deya qayd etadi.” Bu yondashuv, intellektni faqat aqliy qobiliyat sifatida ko‘rmaslikni, balki uni hayotiy tajriba, shaxslar bilan munosabatlar va kelajakdagi qarorlar uchun olingan saboqlar bilan ham bog‘lashni anglatadi.

Insonning intellektual rivojlanishi tug‘ma qobiliyatlar va orttirilgan shaxsiy fazilatlar o‘rtasidagi murakkab o‘zaro bog‘liqlik asosida shakllanadi. Intellektual salohiyat faqat biologik omillar bilan emas, balki ijtimoiy muhit, ta’lim, tarbiya va shaxsiy intilishlar orqali ham rivojlanadi. Ziyolilik va intellektual rivojlanish bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ziyoli insonning asosiy fazilatlari uning bilish qobiliyatining yuksakligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham intellektual rivojlanish insonni chin ma’noda ziyoli darajasiga olib chiquvchi muhim jarayonlardan biridir. I.Eshpulatov fikricha: “Insonning intellektual rivojlanish darajasini ham tug‘ma, ham orttirilgan shaxsiy fazilatlar bilan bog‘lagan holda, har bir insonning o‘ziga xosligi va mustaqil qadriyatini e’tirof etdi.” Intellektual rivojlanish insonning bilim va tajribalarini to‘plash, tahlil qilish hamda innovatsion yondashuvlarni shakllantirish jarayonidir. Shaxsning mustaqil fikrlashi va qadriyatları uning tafakkur darajasini yanada yuksaltirib, jamiyatning intellektual taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sadi. Shu bois, har bir inson ziyolilik darajasiga ega bo‘lishi uchun mustaqil fikrlash, ijodkorlik va innovatsion yondashuvlar orqali intellektual rivojlanish bosqichidan o‘tishi lozim.

Ziyolilar mafkurasining nazariy va metodologik asoslari zamонавија jamiyatda muhim o‘rin tutadi. Ziyolilar jamiyatda intellektual va axloqiy yetakchilikni amalga oshiruvchi, ilm-fan, madaniyat va san’at sohalarida faoliyat yurituvchi, o‘ziga xos qarashlar va qadriyatlarni shakllantiruvchi shaxslar sifatida tanilgan. Ularning mafkura va dunyoqarashi faqat shaxsiy fikrlar to‘plami emas, balki jamiyatning taraqqiyotiga, milliy g‘oyaning rivojiga xizmat qiluvchi muhim tizimni tashkil etadi.

Ziyolilar mafkurasining nazariy asoslari bir qancha omillarga asoslanadi. Avvalo, ularning dunyoqarashida erkin fikrlash, ilm-fan va axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi muhim o‘rin tutadi. Ziyolilarning mafkuralari ko‘pincha gumanizm, inson huquqlari, adolat, tenglik va erkinlik kabi

printsiplarga tayangan holda rivojlanadi. Bu mafkura bir vaqtning o‘zida milliy va global miqyosda rivojlanish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillarni hisobga oladi.

Ziyolilar jamiyatda muhim rol o‘ynovchi ijtimoiy qatlam bo‘lib, ularning toifalanishi ularning intellektual faoliyati, kasbiy yo‘nalishi, ijtimoiy mavqeい va mafkuraviy qarashlariga bog‘liq.

Ziyolilarni quyidagi mezonlar asosida tasniflash mumkin:

Mezon	Tasnif
Faoliyat sohasi bo‘yicha	Ilmiy, ijodiy, siyosiy, diniy, texnologik ziyolilar
Ijodiy-uslubiy xususiyatiga ko‘ra	An’anaviy, zamonaviy va innovatsion ziyolilar
Mafkuraviy yo‘nalishiga ko‘ra	Liberal, konservativ, milliy-gumanistik ziyolilar
Sotsiologik jihatdan	Elitar va ommaviy ziyolilar
Jamiyatdagi mavqeい bo‘yicha	Rasmiy (davlat siyosati doirasidagi ziyolilar) va mustaqil (erkin fikrllovchi ziyolilar) ziyolilar

Ziyolilar jamiyatning ma’naviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotida asosiy rol o‘ynovchi qatlam hisoblanadi. Ularning faoliyati va yo‘nalishlariga qarab, turli toifalarga bo‘lish mumkin. Har bir jamiyatning barqaror rivojlanishi va intellektual yuksalishi ziyolilar sinfining faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

XULOSA. Ziyolilar mafkurasi har bir sohada jamiyatni ma’rifat, ilm-fan va axloqiy yuksalishga yetaklovchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bu mafkura tarixiy ildizlarga ega bo‘lsada, zamonaviy dunyoda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydi. Ularning asosiy maqsadi – insoniyatni yuksaklikka, millatni farovonlikka olib borish. Ziyolilar mafkurasi har qanday davr va jamiyatda taraqqiyotning muhim omili hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi ilm-fan, ma’naviyat va madaniyatni rivojlantirish, yosh avlodni tarbiyalash va ular orqali jamiyatni yuksak darajaga ko‘tarishdir.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

- Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. –Т.: Ўзбекистон, 2018. 26-6
- Ўзбекистон миллий энциклопедияси. З харфи. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2005. – Б. 94.
- <https://izoh.uz/word/ziyoli>
- Сиддиқов И.Б. Ёшлар интеллектуал маданиятини ривожлантиришнинг ижтимоий-фалсафий жиҳатлари: Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2020. – Б. 11.

5. Каримов И.А. Биздан озод ва обод Ватан ўолсин. „, Т.: Ўзбекистон, 1994. „, Б. 172.
6. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. –Тошкент: Янги аср авлоди, 2018 йил, 281-бет.
7. Тураев А. Ўзбекистонда ички ишлар ходимларининг интеллектуал маданиятини юксалтириш омиллари(PhD) диссертацияси автореферати
8. Eshpulatov I. “Farobiy, ibn sino va imom g‘azzoliylarning “komil inson” ta’limoti (konsepsiysi)": Фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати . Buxoro – 2023, –B. 16.